

## O'ZBEKISTONDA TURIZM INVESTITSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Ikramova Mehribon Abdushukurovna**

Toshkent amalii fanlar universiteti assistent o'qituvchisi

Telefon:+(99833)9846252

*ikramovamehribonu@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402953>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda turizm sohasidagi investitsiya muhitini va uning istiqbollarini tahlil qilishga qaratilgan holda, turizm sanoatining hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari, turizm sohasidagi investitsiya hajmi va tarkibi, turizm sektorida ishtirok etayotgan xorijiy va mahalliy investorlar, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalari, O'zbekistonda turizm sektori uchun investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar, investitsion muhitni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish, turizmga oid imtiyozlar va preferensiyalarini kengaytirish, turizm infratuzilmasini isloh qilish uchun davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish kabi masalalar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda turizm investitsiyalarini jalg qilish uchun olib boriladigan chora tadbirlar, xorijiy investorlarni jalg qilish uchun targ'ibotlar olib borish, turizm loyihalarini moliyalashtirish uchun yangi manbalarni joriy etish, investorlar uchun qulay va ochiq investitsion muhitini yaratish haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. .

**Kalit so'zlar:** Turizm investitsiyalari, investitsion muhit, turizm infratuzilmasi, investitsiya loyihalari, investitsiya manbaalari, investitsiya strategiyasi, turizm sektori rivojlanishi, imtiyozlar va preferensiyalar, turizm loyihalarini moliyalashtirish.

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM INVESTMENTS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** This article is aimed at analyzing the investment environment in the tourism sector in Uzbekistan and its prospects, the current state and development trends of the tourism industry, the volume and structure of investment in the tourism sector, foreign and domestic investors participating in the tourism sector, investment projects aimed at modernizing the tourism infrastructure, O Issues such as measures to improve the investment environment for the tourism sector in Uzbekistan, improvement of the legal framework regulating the investment environment, expansion of tourism benefits and preferences, and development of public-private partnership for the reform of tourism infrastructure are covered in detail. The article also provides information on measures to attract tourism investments in Uzbekistan, campaigns to attract foreign investors, introduction of new sources for financing tourism projects, creation of a favorable and open investment environment for investors. .

**Key words:** Tourism investments, investment environment, tourism infrastructure, investment projects, investment sources, investment strategy, tourism sector development, benefits and preferences, financing of tourism projects.

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** Целью данной статьи является анализ инвестиционной среды в сфере туризма в Узбекистане и ее перспектив, современного состояния и тенденций развития

туристической отрасли, объемов и структуры инвестиций в сферу туризма, в которых принимают участие иностранные и отечественные инвесторы. в сфере туризма инвестиционные проекты, направленные на модернизацию туристической инфраструктуры, такие вопросы, как меры по улучшению инвестиционной среды для туристической сферы Узбекистана, совершенствование законодательной базы, регулирующей инвестиционную среду, расширение туристических льгот и преференций, развитие. Подробно освещены вопросы государственно-частного партнерства по реформированию туристической инфраструктуры. Также в статье представлена информация о мерах по привлечению туристических инвестиций в Узбекистан, кампаниях по привлечению иностранных инвесторов, внедрении новых источников финансирования туристических проектов, создании благоприятной и открытой инвестиционной среды для инвесторов. .

**Ключевые слова:** Инвестиции в туризм, инвестиционная среда, туристическая инфраструктура, инвестиционные проекты, источники инвестиций, инвестиционная стратегия, развитие туристического сектора, льготы и преференции, финансирование туристических проектов.

### KIRISH

Bugungi kunda turizm sektori O‘zbekiston iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda yurtimizda turizm sanoati jadal sur’atlarda o‘sib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga katta hissa qo’shamoqda. Mazkur sohaga yanada ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat sifatini yaxshilash mamlakatimizning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagи “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PQ-238 sonli qarori turizm yo‘nalishiga qo’shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilishning muhim yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Haqiqatan ham O‘zbekistonda turizm sektoridagi investitsiya jarayonlari, investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda ushbu sohaning istiqbollari mamlakat turizm sektorini xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda turizm sohasi yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Mamlakatimizda qadimiylar madaniy-tarixiy yodgorliklar, tabiat go‘zalliklari va zamonaliviy

<sup>1</sup> Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida// <https://lex.uz/docs/-6549286>

turizm infratuzilmasining tobora rivojlanishi natijasida turizm sektori jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.

So'nggi yillarda turizm sohasiga qilinayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda O'zbekistonda turizm sektoriga 2,2 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar yo'naltirilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,4 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Ushbu investitsiyalarning asosiy qismi mehmonxonalar, turistik obyektlar va infratuzilmani rivojlantirishga sarflanmoqda.

2022 yilda turizm sohasida jami qiymati 22,1 trln. so'mlik 735 ta loyihamalar ishga tushirilib, tarmoqda qo'shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalg qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo'lga qo'yishga bergan e'tibor natijasida turizm bozorimizga Radisson, Wyndham, Hilton, Hyatt Regency, Ramada, Mövenpick, Mercure, Courtyard by Marriott, Minyoun, InterContinental Hotels Group va Accor kabi yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki, Jizzax, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarida bozor talabi asosida o'z faoliyatlarini tashkil qilmoqda.

2023-yilning 10 oyi davomida O'zbekistonga kelgan xorijlik sayyoohlar soni 4,9 million nafarga yetdi. Shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi uch yilda turistlar oqimi qariyb 3 barobar ko'paydi, ya'ni 2021-yilda xorijlik sayyoohlar soni 1,8 million nafarni tashkil qilgandi.

2023-yilning 10 oyi davomida turizm xizmatlari eksporti 1 milliard 830 million dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2018-yilda 1 milliard 041,1 million dollarni tashkil etgandi. 2023-yilda sayyoohlar sonining sezilarli darajada oshishi hisobiga turizm xizmatlari eksporti 2 milliard dollarga etishi kutilmoqda.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida jami 974,2 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 103,5 ming nafarga yoki 11,9% ga oshgan.

Dastlabki ikki oyda kelgan chet ellik fuqarolarning eng ko'pi Tojikistonga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakatdan jami 363,4 mingdan ortiq sayyooh kelgan.

Undan keyingi o'rnlarda Qirg'iziston (291,1 ming) va Qozog'iston (155,9 ming) fuqarolari turibdi. Sayyoohlar ko'p tashrif buyurgan davlatlar beshligida Rossiya (77,9 ming) va Turkmaniston (20,2 ming) joy oldi.

Shuningdek, mazkur davrda Turkiya (14,3 ming), Hindiston (7 ming), Xitoy (5,5 ming), Janubiy Koreya (5,4 ming) hamda Belarusdan (2,2 ming) ham sayyoohlar oqimi kuzatilgan.

Turizm sektoriga investitsiyalarning asosiy manbasi sifatida xorijiy investorlar va xususiy tadbirkorlar faol ishtiroy etmoqda. Jumladan, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Janubiy Koreya va boshqa davlatlardan kelgan investorlar tomonidan O'zbekistonning turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi mehmonxonalar va turistik obyektlar qurish, shuningdek, turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qator loyihamalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda turizm sektori uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida oxirgi yillarda bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2022-yilning oktabr oyida qabul qilingan "Investitsiyalar to'g'risida"gi yangi O'zbekiston Respublikasi Qonuni investorlar uchun qulay va ochiq investitsion muhitni yaratishga qaratilgan. Ushbu qonun investitsiyalarni jalg qilish, himoya qilish va ulardan samarali foydalanish borasidagi kafolatlarni mustahkamladi.

Shuningdek, O'zbekistonda turizm sektoriga investitsiyalar oqimini oshirish maqsadida bir qator soliqlarga, bojlarga va boshqa to'lovlarga nisbatan imtiyozlar va preferenciylar joriy etilgan. Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi qonunda mehmonxonalar, muzeylar, restoranlarga soliq imtiyozlari berildi. Bundan tashqari, 2019-yildan boshlab chet ellik turistlar uchun kassa cheklari olib kiriladigan 18% qo'shilgan qiymat solig'i bekor qilindi.

O'zbekistonda turizm sektori uchun xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida turli xalqaro turizm va investitsiya forumlarida O'zbekistonidagi turizm imkoniyatlari va investitsiya loyihibarini targ'ib qilish bo'yicha tadbirlar tashkil etilmoqda.

### XULOSA

Shunday qilib, so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sektori juda tez sur'atlarda rivojlanib, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, turizm sektori uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investorlarni jalb qilish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yaqin yillarda O'zbekistonda turizm investitsiyalari hajmining sezlarli darajada oshishi va sohaning yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Turizm sektori uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash, shu jumladan, soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar taqdim etish, hamda investorlar uchun qulayliklar yaratish borasidagi tadbirlar yaxshi natija bermoqda. Bundan tashqari, xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida olib borilayotgan keng miqyosdagi reklama-targ'ibot ishlari va yangi moliyalashtirish manbalarini yaratish borasidagi chora-tadbirlar ham samarali bo'lmoqda.

O'zbekistonda turizm sektori uchun investitsiyalarning yanada ko'payishi va sohaning rivojlanishida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi turistik obyektlarni qurish uchun investitsiyalarni yanada ko'paytirish, turizm sektori uchun soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay va ochiq investitsion muhitni yaratish, turli xalqaro turizm va investitsiya forumlarida O'zbekistonidagi turizm imkoniyatlarini keng targ'ib qilish, turizm sektori uchun yangi moliyalashtirish manbalarini izlash va yaratish muhim hisoblanadi.

### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18 –iyuldaggi O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida" gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 27 iyuldaggi 238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R.Tursunova. (2014) "Turizm asoslari"
4. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/>
5. <https://yuz.uz/uz/news/>
6. <https://lex.uz/docs/-6759699>